

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Elektronika va tibbiyot informatikasi yo‘nalishlari” mavzusidagi V xalqaro ilmiy-texnik anjuman
HISOBOTI**

Samarqand davlat universitetida “Elektronika va sog‘liqni saqlash informatika sohasidagi tendensiyalar” mavzusidagi V xalqaro konferensiya ish boshladi. Konferensiyani Samarqand davlat universiteti rektori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a‘zosi Rustam Xolmurodov kirish so‘zi bilan ochdi. Rustam Xolmurodov o‘z so‘zida dunyo taraqqiyotining hozirgi bosqichida raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt naqadar katta ahamiyatga egaligini, ulardan oqilona foydalanish va bu boradagi xalqaro ilmiy-amaliy hamkorlik umumbashariy rivojlanishni yangi yuqori darajaga ko‘tarishini alohida ta’kidladi va konferensiya ishiga muvaffaqiyat tiladi.



AQSHning Jorjiya universiteti sog‘liqni saqlash siyosati va boshqaruvi kafedrası mudiri Mahmud Xon tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ma’ruza qilmoqda.



AQSHdagi xej-fond raisi Vinsent Chang o'z ma'ruzasida moliyaviy-iqtisodiy masalalar yechimida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning samarasini tahlil qilmoqda.



Turkiyaning Acıbadem universiteti professori Yusuf Chelik ma'ruzasi raqamli texnologiyalarning dolzarb masalalariga qaratilmoqda.



**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



A handwritten signature in black ink, likely belonging to H. Xushvaqto'v.

H.Xushvaqto'v